

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH
TA‘LIM O‘QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING MAZMUNI**

Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi

University of economics and pedagogy NOTM, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini belgilovchi yettita kompetensiya va ularning tasnifi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar

Didaktik kompetensiya, Aksiologik kompetensiya, Ijtimoiy-huquqiy kompetensiya, Ma‘lumotlilik kompetensiyasi, Metodik-texnologik kompetensiya, Kommunikativ kompetensiya, Tahliliy nazorat kompetensiyasi, Loyiha tadqiqotchilik kompetensiyasi.

Abstract

This article discusses seven competencies and their classification that determine the content of preparing primary education teachers for professional activity.

Keywords

Didactic Competence, Axiological Competence, Socio-Legal Competence, Informational Competence, Methodological-Technological Competence, Communicative Competence, Analytical and Monitoring Competence, Project and Research Competence.

Аннотация

В данной статье рассматриваются семь компетенций и их классификация, определяющие содержание подготовки учителя начального образования к профессиональной деятельности.

Ключевые слова

дидактическая компетенция, аксиологическая компетенция, социально-правовая компетенция, информационная компетенция, методико-технологическая компетенция, коммуникативная компетенция, аналитико-контрольная компетенция, проектно-исследовательская компетенция.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tizimi – pedagogik mahorat orqali ta‘lim va tarbiya faoliyatlarida namoyon bo‘ladi va u o‘z navbatida o‘qituvchidan yuksak mahoratni talab etadi. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirishda umumiylikdan xususiy mahorat sari boriladi. Umumiy mahorat – bu pedagogik fikr yuritish va faoliyat yurgazish hisoblanadi, fakt va hodisalarni nazariy jihatdan tahlil qilishga undaydi. O‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan mahoratning bu ikki

unsurini birlashtirish asosida konkretlikdan obstraklikka, ya'ni aniqlikdan mavhumlik sari o'tiladi. Ular sezgi, tafakkur va nazariy asoslarda yuz beradi. Tahlil etishni nazariy darajaga olib chiqish mahorati bo'lg'usi o'qituvchilarni pedagogik mahoratga o'rgatishning yoki pedagogik mahoratni yanada takomillashtirishning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Pedagogik masalalarning umumlashganligiga qaramay, pirovard natija, yechim "fikrlash, faoliyat yurgazish, fikrlash" mana shu uchlikka kelib taqaladi hamda pedagogik faoliyat unsurlari va unga mos bo'lgan axborot bilan uyg'unlashib ketadi. Natijada bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi modeli uning nazariy va amaliy tayyorgarligi sifatida namoyon bo'ladi. Ular quydagilar

1. Pedagogik kompetensiya bo'lajak o'qituvchi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat, ko'nikma;

2. Muammolarni muvaffaqiyatli yechish qobiliyati, oliy darajadagi kasbiy mahorat.

3. Kasbiy faoliyati davomida o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan texnologiyalar, metodlar va usullar yig'indisi.

4. Turli tajribalar yig'indisi, pedagogik faoliyatdagi katta tajriba. Pedagogik kompetensiya pedagogika sohasidagi bilim, mahorat, ko'nikma, ma'lumotlilik va obro'e'tibor.

V. Xutorskiy ta'limda o'qituvchining yetti kompetensiyasini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asnosida ya'ni qadriyat va o'zini anglash - o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalar ning mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya - o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlari dagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2. Umummadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish. Ilm- fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va talabalarga tushuntira olishi.

3. O'quv va bilish jarayoni - o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish - pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

7.O‘z ustida ishlashi - jismoniy, ma‘naviy, intellektual jihatdan o‘zo‘zini rivojlantirib borishi. Hissiyotini boshqarish.

Kvalifikatsiya va kompetensiyaning o‘zaro munosabati: Kvalifikatsiya - potensial faoliyatda bilim va ko‘nikmaning namoyon bo‘lishi.

Kompetensiya - bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko‘rinishi.

Didaktik kompetensiya:

- o‘qitish muhitini yaratish;
- mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish;
- o‘quv jarayonini boshqarish;
- talabalarga motivatsiya berish va yordam ko‘rsatish;
- talabalar bilimni anglash va ularni rivojlantirish;
- talabalarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash;
- fanlar bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lish. Ta‘lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o‘qituvchi ning o‘z fani bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo‘ladi:

- ilmiy bilim;
- turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna, misol keltira olishi);
- muammoli vaziyatlarni samarali yechimini topishda ijodiy faoliyat asosida yondashish;

- jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabat da bo‘lish tajribasi. Professional pedagog o‘z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, albatta uning pedagogik mahorati bo‘ladi. U barcha vaziyatlarda ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib boradi. U albatta, zamonaviy metod va usullarni muntazam o‘rganib boradi, pedagogik kasbiy kompetensiyaga ega bo‘ladi. Chunki shu hislatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘zi bilgan, bilmagan holda haqiqiy kompetensiya egasi bo‘ladi. Mehnat qilish madaniyatigagina emas, balki yuksak umuminsoniy madaniyatlar: odobxloq, qadriyatlar va obro‘-e‘tibor egasi bo‘lishi o‘z-o‘zidan ayon. Shu bois ham, talabalarning kasbiy kompetensiya egasi bo‘lib yetishishlari uchun Milliy dasturimizda uch bosqichli tizim bo‘yicha ta‘lim-tarbiya beriladi. Pedagogik qobiliyat - pedagogning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni takshil etish va boshqara olishini ifodalovchi qobiliyat. Kasbiy motivatsiya - kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo‘naltirishga oid faoliyat ta‘sirida shakllanuvchi mayldan iborat. O‘qituvchining kasbiy kompetensiya bazasi shundan iboratki, ta‘limiy, rivojlantiruvchi muhitni tashkil qila olishi ko‘nikmasiga ega bo‘lish kerakki, talabalarda bilim, ko‘nikma malaka shakllansin. Ta‘lim jarayoni shunday tashkil etilishi lozimki, bunda talabalarda qiziqish orsin, shu bilan birga o‘ylash va munozara yuritish, dolzarb savollarni qo‘ya olish, mustaqil tafakkurni

shakllantirish, g‘oyalar yaratishga o‘rgatish, turli xil nuqtai nazarlarni aytish ko‘nikmasini shakllantirish. Har qanday o‘qituvchining maqsadi dars jarayonidagi vaziyatlarni “rivojlantiruvchi muhit”ga aylantira olishi kerak.

Zamonaviy o‘qituvchining asosiy kompetensiyasi:

1. O‘z “ta’limiy kamchiliklari”ni mustaqil tuzatib, bolalar bilan birga ta’lim-tarbiya jarayonini olib borishni bilish.
2. Bolalarni mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishni bilish.
3. O‘quv jarayonini sahnalashtirish bunda turli xil faoliyat usullaridan foydalanish, ularga bolalarning moyilligi va qiziqishiga qarab ishlarni taqsimlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish.
4. Tadqiqotchilik tafakkuriga, bolalarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini tashkil etishni bilishi kerak.
5. Talabalarni yutuq va rivojlanishlarini baholash tizimidan foydalanish.
6. O‘quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni bilish.
7. Dars jarayonida suhbat va bahs-munozara olib borish, bolalar o‘zlari xoxlab aytmoqchi bo‘lgan fikr, qarash va munosabatlarini bayon eta olishlariga yo‘naltirilgan muhitni yaratish. Nafaqat bolalar bir-birlari bilan balki, o‘qituvchi bilan ham shaxsiy qarash va munosabat, tanqidlarni tahlil qilishlari kerak. O‘qituvchining tayanch pedagogik kompetensiyasi yuzasidan Rossiyada kasbiy standart talablari ishlab chiqarilgan bo‘lib, ular:

- ✓ ijtimoiy-shaxsiy kompetensiya;
- ✓ pedagogik faoliyat maqsad va vazifalarini amalga oshirish
- ✓ o‘quv faoliyati motivatsiyasi;
- ✓ informatsion kompetensiya;
- ✓ pedagogik dasturlarini ishlab chiqish va qaror qabul qilish;
- ✓ o‘quv faoliyatini tashkil etish. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oliy ta’lim o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasi tizimi uchun tayanch hisoblangan bir necha turini tilga olishimiz mumkin.

1. **Aksiologik kompetensiya** (rivojlanish va takomillashuv) – shaxs qadriyatlarini, individligi, kasbiy pedagogik faoliyat maqsadlarini chuqur anglashi, kasbiy etik madaniyatga ega bo‘lishi, o‘z kasbini yashashdan maqsadi deb bilishi, talabalarni o‘qitish jarayonlarini ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini kashf etish deya bilishi, pedagogik fanlarning insopparvarlik funksiyalarini chuqur idrok qilishi.

2. **Ijtimoiy-huquqiy kompetensiya** – ta’lim jarayonining me’yoriy-huquqiy asoslari, xususan, uni modernizatsiyalash borasidagi hujjatlar yuzasidan bilimlar, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari hamda me’yorlariga amal qilish, bolalar va o‘smirlarni ijtimoiy yomon illatlardan muhofaza qilishni bilish, ta’lim jarayonida talabalarning hayoti va salomatligini asrashni bilish, oliy ta’lim muassasasi va auditoriya hujjatlarini yuritish ko‘nikmasiga ega bo‘lish demakdir.

3. **Ma'lumotlilik kompetensiyasi** – kasbiy faoliyati bo'yicha belgilangan vazifalarni yechish uchun umumiy va maxsus nazariy fan asoslarini to'laligicha bilish, pedagogik fanlar va ta'lim tarqqiyotining asosiy yo'nalishlari haqida bilimga ega bo'lish, axborot texnologiyalarining turli manbalari bilan ishlashni bilish (bosma, elektron, internet) ma'lumotlardan maqsadga muvofiq samarali foydalanishni bilish ko'nikmasidir.

4. **Metodik-texnologik kompetensiya** – kasbiy faoliyatni chuqur anglash va uning ijodiy tabiatini ro'yobga chiqarish. O'z malakasini takomillashtirish uchun bilimlarini oshirib borishga tayyorligi, oliy ta'lim darsliklari va dasturlari borasidagi bilimlari, ular yordamida yillik mavzularga oid rejalar ishlab chiqishni bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'zi o'qiyotgan fan, soha talablaridan kelib chiqqan holda darsda va darsdan tashqarida faoliyat olib borishi, turli-tuman metodlar, usullar va o'quv jihozlari (kompyuter va boshqalar)dan foydalanishni bilishi, ta'limga shaxsiy yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan yondoshuv, mazmunmohiyatini yaxshi tushunishi, guruh rahbari vazifasini bajara olishga tayyorgarligi, bunda shaxs madaniyatining barcha yo'nalishlari bilan bog'liq barcha vazifalarni yecha bilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, belgilangan maqsad va vazifalarni yechishga mos tarzda qo'llay bilishi, talabalarning shaxs sifatida shakllanishi uchun tarbiyaviy va yo'l-yo'riq ko'rsatish ishlari orqali turli ijtimoiy tabaqalar bilan hamkorlikda (talabalar jamoasi, oila, qo'shimcha ta'lim tizimi, madaniyma'rifiy ishlar) ta'sir ko'rsata olishidan iborat.

5. **Kommunikativ kompetensiya.** Hamkorlikda ta'lim faoliyatini tashkil etishni bilishi, bag'rikenglik bilan ish yuritishi, ziddiyatli vaziyatlarda o'zini munosib tuta bilishi, guruh jamoasini demokratik boshqarish va o'z-o'zini boshqarish faoliyatida ishtirok etishi, talabalar ijtimoiy faoliyati uchun ko'maklashishi, o'zining ilmiy- metodik faoliyati natijalarini taqdim etishni bilishi va boshqalar.

6. **Tahliliy nazorat kompetensiyasi.** Pedagogik jarayonlar ning bir butunligini ta'minlovchi, psixologik mexanizmlarni tahlil qila olishi, o'quv tarbiyaviy jarayonlarning barcha bosqichlarida hushyorlik bilan faoliyat ko'rsata olishi, ta'lim natijalarini baholashning an'anaviy va zamonaviy vositalarini (test, reyting, portfolio) bilishi, shaxs, talaba va guruh jamoasini o'rganish va bashorat qilishni turli pedagogik-psixologik usullariga ega bo'lishidan iborat.

7. **Loyiha tadqiqotchilik kompetensiyasi.** O'zining kasbiy faoliyatidan qoniqmaslik va shu asnoda uni yangilash, takomillashtirishni bilishi, ta'lim jarayonlari qatnashchilari bilan barcha tashkiliy ishlarning mazmun-mohiyati va metodlari borasida o'zaro hamkorlik qilishi, o'quv- dasturiy hujjatlarni tayyorlash asoslarini bilishi va ulardan ta'lim mazmundorligini ro'yobga chiqarishda foydalanishi, bolalar va o'smirlarning ijtimoiy jihatdan moslasha olmayotganligini bilishi va bunday holatlarning oldini olishi, psixologik-pedagogik tadqiqotlar loyihasini ishlab chiqishni bilishi kabilardan iborat. Kasbiy pedagogik kompetensiya mezonlarini ishlab chiqish

eng murakkab pedagogik muammo, eng dolzarb masala ekanligini ta'kidlar ekanmiz, bu borada aniq ishlab chiqilgan o'lchovlar yo'qligini ham tan olishimiz lozim. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi tizimi pedagogning mahoratida ko'zga tashlanadi. Biz yuqorida keltirgan o'qituvchining kompetensiya modelini uning kasbiy tayyorgarligi modeli desak xato qilmaymiz. Kasbiy kompetensiyaning eng muhim qirralaridan biri o'qituvchi-pedagogning nazariy tayyorgarligi masalasidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz joiz deb bildik, Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga yo'naltirish kasbiy kompetentligining muxim tarkibi, innovasiyalarga nisbatan ochiqlik, analitik tafakkur, ijodkorlik va tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'lish xamda kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanishga tayyorlash uchun quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib olishni taklif deya bildirdik.

1. Pedagog kadrlarda kasbiy faoliyat va sohaga tegishli yangi kompetensiyalar va ko'nikmalarni faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish
2. Ta'lim jarayonida sifatga urg'u berish orqali pedagogik jarayonga ijodiy yondashuv va novatorlikni rivojlantirish;
3. Hamkorlikdagi ta'lim, loyihaviy va muammoli ta'lim elementlarini o'z ichiga olgan "tadqiqotlar orqali ta'lim" kontseptsiyasini amaliyotga keng joriy etish;
4. Ijodiy seminarlar, kastinglar, master klasslar tashkillashtirish orqali pedagoglar va talabalarni hamkorlikdagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va pedagoglarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarish sohasidagi zaruriy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi-O'zbekiston Respublikasining Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847 sonli farmoni
2. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovasion ta'lim muhitini yaratish. Integration of sciencye, education and practicye. sciyentific-methodical journal, 1(02), 132-137
3. Yelegina V.S., Poxlebayev S.M. Kompetentnosnyy podxod k organizatsii obucheniya studentov v pedagogicheskim vuze. Fundamentalnoye issledovaniye. 2012 № 3.
4. S.B.Qorayev,N.I Tirkashev „Kompetensiyaga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari Academic Research in Educational Science 2022 1072-st